

Bizlar "Samarqand mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi xizmati" davlat unitar korxonasi (Keyingi o'rinlarda "Buyurtmachi" deb yuritiladi) nomidan 2022-yil 8-avgustdagi 47-sonli buyruq asosida direktori rinbosari v.b.K.Ximmatkulov bir tomondan va "SHAG'ALSOY BIZNES" MCHJ (Keyingi o'rinlarda "Bajaruvchi" deb yuritiladi) nomidan Ustav asosida ish yurituvchidirektori Q.Xakimbekov ikkinchi tomondan "Samarqand Mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi xizmati" DUK xarid komissiyasining 30.09.2022 yildagi 154673-sonli bayonnomasi asosida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil martdagi PQ-172-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Obod qishloq" va "Obod mahalla" dasturlari ijrosini ta'minlash maqsadida ushbu pudrat shartnomani tuzdilar.

1. SHARTNOMA MAVZUSI

1.1 "Pudratchi" mazkur shartnoma bo'yicha Qo'shrabot tumani Buloqboshi MFY Islom obod ko'chasini joriy ta'mirlash ishlari ko'zda tutilgan holda va belgilangan muddatlarda bajarish, "Buyurtmachi" esa bu ish xizmatlarni qabul qilib olishi va bajarilgan ishlar uchun ajratilgan mablag'dan kelib chiqqan holda, o'z vaqtida to'lovlarini amalga oshirish majburiyatini oladi.

2. SHARTNOMA BO'YICHA ISHLAR QIYMATI

2.1 Ish xizmatlarning nomi, miqdori, sifati va narxi, mazkur shartnomadagi "jadval №1" ga muvofiq aniqlanadi. "Pudratchi" tomonidan shartnoma bo'yicha bajariladigan ishlar barcha soliq, yig'imlar va ajratmalarni o'z ichiga olgan holda joriy narxlarda

Jadval №1

№	Ishxizmatlarning nomi	Miqdori Km	Pudratchiga to'lab berishga kelishildi (QOS bilan xisoblangan qiymati) so'm
1	Qo'shrabot tumani Buloqboshi MFY Islom obod ko'chasini joriy ta'mirlash L=1580	1,580	176 284 140
			Jami: 176 284 140

2.2. Buyurtmachi Pudratchiga shartnoma umumiy qiymatining 30 % foizi miqdorida avans mablag'ini shartnoma qonuniy kuchga kirgan kundan boshlab 10 ish kunida, obyekt bo'yicha yakuniy hisob-kitob ob'yekt foydalanishga topshirilgan kundan boshlab bir oy ichida amalga oshiriladi.

2.3. "Pudratchi" obyektini foydalanishga topshirish to'g'risidagi dalolatnomani Buyurtmachiga topshirgandan so'ng, bajarilgan ishlar haqining qolgan 5 % (foiz) mablag'i to'lab beriladi.

3. SHARTNOMA SHARTLARI:

3.1. "Pudratchi" faqatgina "Buyurtmachi" bilan shartnoma tuzgandan keyin ishlarni bajarishini amalga oshiradi.

3.2. Ishlar va xizmatlarga egalik huquqi "Buyurtmachi"ga loyiha smeta hujjatlarida ko'rsatilgan ishlar "Pudratchi" tomonidan to'liq bajarilgandan keyin o'tadi.

3.3. "Pudratchi" tomonidan qurish davrida ish turlariga o'zgartirishlar kiritish yuzasidan oldindan "Buyurtmachi"ga yozma ravishda bildirish kiritadi, "Buyurtmachi" belgilangan tartibda ko'rib chiqib, ish turlariga o'zgartirishlar kiritish yoki uni rad etish yuzasidan qaror qabul qiladi.

3.4. "Pudratchi" tomonidan qurilish davrida o'zgartirishlar kiritilgan ish turlariga smeta qilinib, ushbu smetaga belgilangan tartibda ekspertiza xulosasi olingandan so'ng to'lovlar amalga oshiriladi.

3.5. "Pudratchi" loyiha-smeta hujjatlari bo'yicha ishlab chiqarish texnologiyalardan chiqmagan holda haqiqatda ishlatilgan ish turlari, mashina mexanizmlari va bajarilgan ish hajmlari bo'yicha "Buyurtmachi" tomonidan moliyalashtirish amalga oshiriladi.

4. BAJARILGAN ISH SIFATI.

4.1. "Pudratchi" tomonidan "Buyurtmachi"ga bajarilgan ishning sifati va ish hajmlari loyiha-smeta hujjatlariga asosan bajarilishiga va davlat standarti talablariga muvofiq kelishiga kafolat beradi.

4.2. Bajarilgan ishning sifati va davlat standarti talablariga muvofiqligini "Buyurtmachi" va "Yo'lqurilish nazorat" inspeksiyasi doimiy ravishda nazorat qilib boradi.

5. ISHLARNI BAJARISH MUDDATLARI

5.1 "Pudratchi" mazkur shartnoma imzolangan va g'aznachilik bo'limi ro'yxatdan o'tkazgan kundan boshlab ishlarni bajarishga kirishadi va 2022 yilning 5 noyabr gacha obyektini foydalanishga topshiradi.

5.2 "Pudratchi" ob'yektini foydalanishga topshirish to'g'risidagi dalolatnomani, ob'yektini foydalanishga topshirish uchun belgilangan kundan boshlab 20 kunlik muddatda "Buyurtmachi"ga topshiradi.

5.3 «Pudratchi» ob'yektida joriy ta'mirlash ishlari joriy yilga ajratilgan mablag'dan kelib chiqqan holda bajaradi, bunda agar mablag' ajratilishi keyingi yillarga kuchirilsa O'zR VMning 2003 yil 11 iyundagi 261-sonli Qaroriga asosan smetada bajarilmagan ish turlarining narxlarini o'rganib chiqilib Qurilish Vazirligining xulosasiga shartnomaga qo'shimcha kelishuv tuziladi.

6. TOMONLARNING MULKIY JAVOBGARLIGI

6.1. Tomonlardan biri shartnoma majburiyatlarini bajarmagan yoki zarur darajada bajarmagan taqdirda aybdor tomon: ikkinchi tomonga yetkazilgan zararlarni qoplaydi;

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida, "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Qonunida, boshqa qonun hujjatlarida hamda mazkur shartnomada nazarda tutilgan tartibda javobgarlikka tortiladi.

"Pudratchi" tashkilot qonunchilikka asosan va shartnomaga muvofiq "Buyurtmachi" oldida quyidagi ishlar bo'yicha mulkiy javobgardir:

sifatsiz bajarilgan qurilish-montaj ishlari;

ob'yektini hamda uning bosqichlari va navbatlarini belgilangan muddatda tugallamagani;

"Pudratchi" shartnomada ko'rsatilgan ishlarni 50%dan ortig'ini o'z kuchlari bilan bajarmaganligi uchun;

"Buyurtmachi" bilan tuzilgan shartnoma asosida qurilish-montaj va boshqa ixtisoslashtirilgan tashkilotlar tomonidan uskunalarini montaj qilish muddatlarini buzilishi;

ob'yektning loyiha-smeta hujjatlarida belgilangan yerlarni rekultivatsiya qilish ishlari bajarish hajmlari va muddatlarining buzilishi;

mukammal, qayta qurish jarayonida yoki oraliq qabul qilishda "Pudratchi", mualliflik nazorati va boshqa nazorat organlari tomonidan aniqlangan konstruksiyaya va ishlardagi yo'l qo'yilgan kamchiliklar va nuqsonlarni bartaraf etishni orqaga surish;

shartnomada ko'zda tutilgan boshqa majburiyatlarni bajarmagan yoki to'la-qonli bajarmagan.

"Pudratchi" tashkilot tomonidan ishlarning bajarilishida pudrat shartnomasidan chekinish yoki boshqa kamchiliklar mavjudligida "Buyurtmachi", agar qonunchilik yoki shartnomada boshqa shartlar ko'zda tutilmagan taqdirda, pudratchi tashkilotdan o'z ixtiyoriga ko'ra quyidagilarni talab qilish huquqiga ega:

nuqsonlarni oqilona muddatlarda o'z hisobidan bartaraf etishni;

Agar "Pudratchi" tashkilot nuqsonlarni kelishilgan muddatlarda bartaraf etmasa, "Buyurtmachi" yoki ob'ektdan foydalanuvchi tashkilot o'z kuchi bilan "Pudratchi" hisobidan nuqsonlarni bartaraf etish hamda nuqsonlarni o'z vaqtida bartaraf etilmaganligi oqibatida keltirilgan zararni va bajarilgan ish qiymatini undirish huquqiga ega.

6.2. Shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlarga rioya qilmaganligi, o'z vaqtida moliyalashtirmaganligi va shartnomada belgilangan boshqa majburiyatlarni buzilganligi uchun "Buyurtmachi" "Pudratchi"ga kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 0,4% foizi miqdorida penya to'laydi, bunda penyaning umumiy summasi moliyalashtirilmagan mablag' qiymatining 50 % dan oshmasligi lozim.

Penya to'lanishi "Buyurtmachi"ni shartnoma shartlari buzilishi tufayli yetkazilgan zararni qoplashdan ozod qilmaydi.

6.3. Moliyalashtirishning kechikishi "Investor"ning aybi bilan sodir etilsa, moliyalashtirish bo'yicha "Buyurtmachi" "Pudratchi"ning oldida javobgar bo'lmaydi.

6.4. Pudratchi tomonidan ob'yektini o'z vaqtida ishga tushirish bo'yicha majburiyatlar buzilgan bo'lsa "Pudratchi" "Buyurtmachi"ga muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 0,4% miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi bajarilmagan ishlar yoki ko'rsatilmagan xizmatlar qiymatining 50%dan oshmasligi lozim.

"Buyurtmachi" tomonidan topilgan nuqsonlar va kamchiliklar o'z vaqtida bartaraf etilmaganligi uchun "Pudratchi" "Buyurtmachi"ga muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun sifatsiz bajarilgan ishlar qiymatining 0,4 % miqdorida penya to'laydi, bunda penyaning umumiy summasi sifatsiz bajarilgan ishlar qiymatining 50 % dan oshmasligi kerak.

Penya to'lash "Pudratchi"ni ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko'rsatishning kechikishi tufayli yetkazilgan zararlarni qoplashdan ozod qilmaydi.

6.5. Agar bajarilgan ishlar sifati belgilangan standartlarga, qurilish me'yorlari va qoidalariga, ish hujjatlariga muvofiq bo'lmasa, u hujjatlarini xabardor qilishi va 15 kun ichida ishlarni davom ettirish maqsadga muvofiq yoki muvofiq emasligi to'g'risidagi masalani ko'rib chiqishi shart. Ishlarning to'xtatilishi tomonlar uchun O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida ko'zda tutilgan oqibatlar va javobgarlikka olib keladi.

6.6. Shartnoma bo'yicha majburiyatlar bajarilmaganligi uchun mazkur badda nazarda tutilgan jazolardan tashqari shartnomani buzgan tomon ikkinchi tomonga boshqa tomon tarafidan qilingan xarajatlarda, mol-mulkning yo'qotilishi yoki shikastlanishida, shu jumladan boy berilgan foydada ifodalanganidagi penya bilan qoplanmagan zararlarni qoplaydi.

6.7. Muddat o'tkazib yuborilganligi yoki majburiyatlarning boshqacha tarzda zarur darajada bajarilmaganligi uchun penya to'lash tomonlarni ushbu majburiyatlarni bajarishdan ozod qilmaydi.

7. SHARTNOMANI BEKOR KILISH VA NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI.

7.1. Agar ishlarni bajarilish jarayonida uni davom ettirish maqsadga muvofiq emasligi aniqlansa, tomonlar 5 kun muddat ichida uni to'xtatish to'g'risida bir-birini xabardor qilishi va 15 kun ichida ishlarni davom ettirish maqsadga muvofiq yoki muvofiq emasligi to'g'risidagi masalani ko'rib chiqishi shart. Ishlarning to'xtatilishi tomonlar uchun O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida ko'zda tutilgan oqibatlar va javobgarlikka olib keladi.

7.2. Tomonlardan biri mazkur shartnomada ko'zda tutilgan ishlarni to'xtatish to'g'risida yozma xabar bergan vaqt o'zaro hisob-kitob qilish vaqti hisoblanadi.

7.3. Lozim topilgan hollarda tomonlar xolis ekspertlarga Loyiha bo'yicha xulosa uchun murojaat qilishi yoki qabul komissiyasi tashkil qilishi mumkin.

7.4. Mazkur shartnoma amal qilish davomida yuzaga keladigan tortishuvlar, kelishmovchiliklar, nizolar tomonlar tarafidan o'zaro muzokara yo'li bilan hal etiladi.

Kelishuvga erishilmagan taqdirda tortishuvlar, kelishmovchiliklar, nizolar Samarqand shahar iqtisodiy sudida to'gridan-to'g'ri da'vo ariza kiritish yo'li bilan ko'rib chiqiladi.

8. SHARTNOMANING AMAL KILISH MUDDATI:

8.1. Mazkur shartnomaning amal qilish muddati 2022 yil 31 dekabr gacha.

8.2. Shartnoma qo'yidagi hollarda muddatidan oldin bekor qilinishi mumkin;

- tomonlar kelishuviga muvofiq;

- agarda shartnomaning 5.1-bandida belgilangan muddatda "Pudratchi" tomonidan ob'jekt foydalanishga topshirilgan taqdirda, "Buyurtmachi" kamida 5 (besh) kun oldin "Pudratchi"ni xabardor qilgan holda shartnomani bir tomonlama bekor qilish huquqiga ega.

9. KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH SHARTLARI

9.1. Tomonlar amaldagi korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi qonun hujjatlarini talablariga rioya qilish va ushbu shartnoma bo'yicha o'z huquq va majburiyatlarini bilan bog'liq holda korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi qonun hujjatlarini buzadigan har qanday harakatlarni amalga oshirmaslik, shu jumladan noqonuniy to'lovlar taklif qilmaslik, bunday to'lovlarga ruxsat bermaslik, va'da qilmaslik, shuningdek har qanday jismoniy yoki yuridik shaxslarga, shu jumladan tijorat tashkilotlariga, davlat va o'zini o'zi boshqarish organlariga, davlat xizmatchilariga, xususiy kompaniyalarga va ularning vakillariga naqd pul yoki boshqa shaklda pora bermaslik va pora talab qilmaslik hamda qonunga xilof boshqa xatti-harakatlar sodir etmaslik majburiyatini oladilar.

9.2. Tomonlardan biri ushbu badda ko'rsatilgan majburiyatlarini buzgan taqdirda, boshqa tomon bir tomonlama va sudgacha bo'lgan tartibda ushbu shartnomani bajarishni rad etishga haqli. Ushbu badda muvofiq shartnoma bekor qilingan taqdirda tomonlar bir-birlariga kompensatsiya to'lamaydilar.

10. YENGIB BO'LMAYDIGAN KUCH (FORS-MAJOR) XOLATLARI

10.1. Agar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmasligi tabiiy hodisalari va boshqa yengib bo'lmaydigan kuch holatlari natijasida kelib chiqsa va agar bu holatlar mazkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, tomonlar bundan qisman yoki to'liq bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.

10.2. Agar yengib bo'lmaydigan kuch holatlari yoki ularning oqibatlari bir oydan ko'p vaqtga cho'zilsa, u holda "Pudratchi" va "Buyurtmachi" ishlarni davom ettirish yoki ularni konservatsiya qilish uchun qanday choralar ko'rilishini muhokama qiladilar.

10.3. Agar tomonlar ikki oy ichida kelisha olmasalar, u holda tomonlarning har biri shartnoma bekor qilinishini talab qilishga haqlidir.

11. BOSHQA SHARTLAR:

11.1. Agar "Pudratchi" shartnoma bo'yicha ishlar yakunlangandan keyin qurilish maydonida o'ziga tegishli mol-mulkni qoldirsa, u holda "Buyurtmachi" "Pudratchi" qurilish maydonini ozod qilish sanasigacha bajarilgan ishlar uchun unga haq to'lashni kechiktirishga haqlidir.

11.2. Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan boshqa barcha hollar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi va amaldagi qonun hujjatlarini normalari qo'llaniladi.

11.3. To'langan penya yoki jarimalar tomonlarni ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishdan ozod qilmaydi.

11.4. Ushbu shartnoma o'zbek tilida ikki nusxada tuzildi va bir xil yuridik kuchga ega.

11.5. Mazkur shartnoma tomonlar imzolagandan va g'aznachilik bo'limidan ro'yxatdan o'tganidan so'ng huquqiy kuchga kiradi.

11.6. Mazkur shartnoma imzolagandan keyin, tomonlar o'rtasidagi barcha oldingi yozma va og'zaki bitimlar, yozishmalar, o'zaro kelishuvlar o'z kuchini yo'qotadi, shartnomaga kiritilayotgan o'zgarish va qo'shimchalar yozma kelishuv bitimiga asosan kiritiladi.

TARAFDOR MANZILI VA BANK REKVIZITLARI:

"BUYURTMACHI"

Nomi: "Samarqand mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi xizmati" DUK

Manzili: Samarqand sh. A.Nabiev ko'chasi 3-uy

Bank: Samarqand sh. "Ipoteka bank"

Yao'N: 304521860184017045129118734

STIR: 207 254149

OKSN: 202200

MFO: 0012

Direktor:  K. Ximmatkulov

Mazkur shartnoma 29.08.1998 yildagi "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonunning 21-moddasiga asosan huquqiy ekspertizadan o'tkazildi. Shartnoma matni amaldagi qonunchilik talablariga rioya qilingan holda tuzilgan. Ushbu huquqiy ekspertiza shartnomadagi narxlarning shakllantirilishiga nisbatan tadbir qilinmaydi.

Yurist: 

"PUDRATCHI"

Nomi: "SHAG'ALSOY BIZNES" MCHJ

Manzili: Qo'shrabot t Qurolos MFY, Birlilik ko'chasi

Bank nomi: "Milliy bank" Samarqand filiali

X/R: 20208000700251356001

STIR: 302 651 953

MFO: 00278

"D": (94) 290-9080; (97) 928-79-81

Direktor:  Q. Xakimbekov

Yurist: _____

O'zbekiston Respublikasi Moliya Garnachilik boshkarmasi

XG'R: 23402000300100001010

Bank nomi: Markaziy bank XKKM Toshkent shahar bulimi

Manzil: Sam shahar Kuksaroy maydoni 1

Stir (INN): 206919238 MFO: 00014 OKONX: 97400

2022 yil " 5 " " oktabr " kuni tuzilgan
1050/22-KM-ZX-sonli shartnomaga 2-ilova

Qo'shrabot tumani Bulqoboshi MFY Islom obod ko'chasini joriy ta'mirlash L=1580

BAJARISH VA MOLİYALASHTIRISH JADVALI


№	Bajarilgan ishlarning nomi	Qiymati	Bajarish		Moliyalashtirish muddati
			muddati	qiymati	
1	Qurilish mantaj ishlari 30%	52 885 242	05.11.2022	176 284 140	2022 yil
2	Qurilish davomida to'lab beriladigan summa	114 584 691			167 469 933
3	Qoldiq 0,5%	8 814 207			
4	Jami:	176 284 140	«Pudratchi» obyektini foydalanishga topshirish to'g'risidagi dalolatnomani Buyurtmachiga topshirgandan so'ng, bajarilgan ishlar haqining qolgan 5% (foiz) mahablag'i to'lab beriladi.		



Buyurtmachisi 2022.10.04



Bajaruvchi



BAYONI

Samarqand shahri
Raislik qiluvchi

S.Mamatkulov

Ishtirok etgan komissiya a'zolari:

Sultanmuradov Elyor
Erkinovich

Komissiya raisi o'rinbosari Bosh muhandis

Maxmudov Sherzod
Ulug'bekovich

Komissiya a'zosi Moliya iqtisodiyot bo'limi boshlig'i,

Bekmirzayev Azim
Xasanovich

Komissiya a'zosi Loyiha ta'minoti bo'limi boshlig'i,

Abdurayimov Sobir Mamarajabovich
Narmatov Xurshid Umrbayevich

Komissiya a'zosi, Ishlab chiqarish texnik bo'lim boshlig'i,
Komissiya kotibi, Tenderlarni tashkil etish va shartnomalar bo'limi boshlig'i.

1. Komissiya a'zolari egallab turgan lavozimidan boshqa ishga o'tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimga yangidan tayinlangan xodim kiritiladi.

KUN TARTIBI:

1. Komissiya a'zosi ishlab chiqarish texnik bo'lim boshlig'i S. Abdurayimov o'z arizasiga asosan mehnat shartnomasi bekor qilinganligi sababli eng yaxshi takliflarni tanlashda qatnasha olmadi.

Kun tartibidagi masala yuzasidan "Samarqand mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi xizmati" DUK komissiya raisi S. Mamatkulovso'zga chiqib Respublika byudjeti mablag'lari hisobidan Samarqand viloyatdagi ichki avtomobil yo'llarini joriy ta'mirlash bo'yicha 2022 yil uchun manzilli ro'yxatiga asosan quyidagi

1. Qo'shrabot tumani Buloqboshi MFY Islom obod ko'chasi joriy ta'mirlash
2. Qo'shrabot tumani Chimmos MFY ichki yo'llarini joriy ta'mirlash
3. Qo'shrabot tumani Chinoq MFY ichki yo'llarini joriy ta'mirlash
4. Qo'shrabot tumani Kuvkalla MFY ichki yo'llarini joriy ta'mirlash
5. Payariq tumani Toxirshayx MFY Moylitepa qishlog'i asosiy ko'chasi va Nayman qishlog'ini Beglar guzari bilan bog'lovchi yo'lini joriy ta'mirlash
6. Qo'shrabot tumani Qovonchi MFY ichki yo'llarini joriy ta'mirlash bo'yicha

(Sultanmuradov E, Sh. Maxmudov, S. Abduraimov, A. Bekmirzayev.)

"Samarqand mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi xizmati" DUK tomonidan 2022 yil 23 sentabr O'zbekiston Respublikasi Tovar va xom-ashyo birjasining elektron portaliga to'g'risida bo'yicha e'lon joylashtirildi.

Mazkur lot bo'yicha 2022 yil 30 sentabrdagi eng yaxshi takliflarni tanlash savdosini o'tkazish bo'yicha davlat xaridlari komissiyasining elektron portali orqali shakillangan bayonnomalari asosan e'lon yakuniga ko'ra Komissiya a'zolari tomonidan "OOO SHAG'ALSOY BIZNES" g'olib deb topilganini inobatga olib

YIG'ILISH QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 22 apreldagi "Davlat xaridlari to'g'risida"gi 684-sonli Qonunining 62-moddasi 3-bandiga asosan yuqorida nomi ko'rsatilgan obyektlar bo'yicha komissiya bayonnomasi davlat xaridlari elektron tizimiga muxokama qilish uchun ikki ish kuniga joylashtirildi. Ikki ish kuni davomida davlat xaridlari elektron tizimiga joylashtirilgan bayonnoma bo'yicha xech qanday e'tirozlar yoki qo'shimcha takliflar kelib tushmaganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tenderlarni tashkil etish va shartnomalar bo'imi boshlig'i X. Narmatov, yuqoridagilardan kelib chiqib hamda komissiya a'zolarining 2022 yil 30 sentabrdagi elektron bayonnomalari asosan "OOO SHAG'ALSOY BIZNES" bilan qonunchilikda o'rnatilgan tartibda shartnomalar tuzish vazifasi yuklatilsin.

3. Korxonalar bosh muhandisi E. Sultonmurodov, tanlov g'olibi "OOO SHAG'ALSOY BIZNES" tomonidan qurilish mantaj ishlarini SHNQ va QMQga mos ravishda nazorat qilish vazifasi yuklatilsin.

Komissiya a'zolari

F.I.SH	Imzo	Lavozimi
Sultanmurodov Elyor Erkinovich		Korxonalar bosh muhandisi
Maxmudov Sherzod Ulug'bekovich		Moliya iqtisodiyot bo'limi boshlig'i
Bekmirzayev Azim Xasanovich		Loyiha ta'minoti bo'limi boshlig'i
Abduraimov Sobir Mamarajabovich		Ishlab chiqarish texnik bo'limi boshlig'i
Komissiya kotibi		
Narmatov Xurshid Umrbayevich		Tenderlarni tashkil etish va shartnomalar bo'limi boshlig'i